ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O‘ZBEKISTON

2026 Vol. 1

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2026 Vol. 1

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: Nozliya Normurodova

Mas’ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Nurboy Jabborov, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Dilorom Ashurova, Uzoq Jo‘raqulov, Zulxumor Xolmanova, Ziyoda Teshaboyeva, Dilnavoz Yusupova, Iroda Azimova, Sulton Normamatov, Zulxumor Ortiqova, Botir Elov, Komil Kalonov, Manzura Abjalova, Rasul Atamurodov

Tahrir hay’ati

Nazef Shahrani (AQSH)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)
Ahmadali Asqarov (O‘zbekiston)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)
Akmal Nur (O‘zbekiston)
Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Muzaffar Komilov (O‘zbekiston)
Tanju Seyhan (Turkiya)
Akmal Saidov (O‘zbekiston)
Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san’at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o‘rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoʻi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nozliya Normurodova

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoev, Samikhon Ashirboev, Nurboy Jabborov, Farhod Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Dilorom Ashurova, Uzak Jurakulov, Zulkhumor Khalmanova, Ziyoda Teshaboeva, Dilnavoz Yusupova, Iroda Azimova, Sulton Normamatov, Zulkhumor Ortikova, Botir Elov, Komil Kalonov, Manzura Abjalova, Rasul Atamurodov

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)
Elisabetta Ragagnin (Italy)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)
Akmal Nur (Uzbekistan)
Almaz Ülvi (Azerbaijan)
Muzaffar Komilov (Uzbekistan)
Tanju Seyhan (Turkey)
Akmal Saidov (Uzbekistan)
Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Nicholas Kontovas (Great Britain)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navoʻi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

LINGVISTIKA

Munavvara Qurbonova
Bolalar nutqida emotsional deyksisning voqelanishi 6

Nurbek Ahmadjonov
O‘zbek va nemis rahbar-muloqot diskursida nutq odobi va uning lingvistik aspektlari 24

Aynel Mashadiyeva
Turkiy tillar va dialektlardagi sifatdoshlarning qiyosiy-tarixiy tadqiqi 41

Firuz Abdusalomov
Zamonaviy media diskursida harbiy leksikaning semantik transformatsiyasi 58

Elnare ALİYEVA
Türk Dillerinde İsimlerde Çoğulluğun Bazı Özellikleri 71

ADABIYOTSHUNOSLIK

Almaz Ülvi BİNNƏTOVA
Ensiklopedik Təfəkkürə Malik Mənəviyyat Memarı (İsrafil Məmmədovun “Uç, göyərçinim, uç” əsəri haqqında ədəbi qeydlər).....83

Mohida Qodirova
Tarixiy manbadan badiiy talqinga: Esondavlat begim obrazining ingliz tarixiy romanlaridagi interpretatsiyasi 95

TARJIMASHUNOSLIK

Yorkinoy Nasirdinova
“La Fermeté des faibles” – So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” pandnoma asarining ilk fransuzcha tarjimasi.....107

Ilhom Xolmuminov
Badiiy hikoya tarjimasining kognitiv mexanizmlari va paradigmatik modellashtirish 119

SOTSIOLOGIYA

Komil Kalanov
Sun’iy intellekt texnologiyalarining sotsiologik diskurs tahlili 133

ETNOLOGIYA. ETNOGRAFIYA. ANTROPOLOGIYA

Adhamjon Ashirov
Samarqand bozorlari tarixi va o‘ziga xos xususiyatlari 156

CONTENT

LINGUISTICS

Munavvara Kurbanova
The realization of emotional deixis in children's speech 6

Nurbek Ahmadjonov
Speech Etiquette and its Linguistic Expression in Uzbek and German Leadership-Communication Discourse 24

Aynel Mashadieva
Participles in Focus: a Comparative-Historical Study in Turkic Languages and Dialects 41

Firuz Abdusalomov
Semantic Transformation of Military Lexicon in Contemporary Media Discourse 58

Elnare ALİEVA
Particular Features of Noun Pluralization in Turkic Languages 71

LITERATURE

Almaz Ulvi BİNNATOVA
Encyclopedic Thinking and the Artistic Representatıon of Spiritual Memory (Literary notes on Israfil Mammadov's work "Fly, my dove, fly").....83

Mohida Qodirova
From Historical Source to Artistic Interpretation: the Portrayal of Esondavlat Begim in English Historical Novels.....95

TRANSLATION STUDIES

Yorkinoy Nasirdinova
"La Fermeté des faibles": The First French Translation of Sufi Olloyor's Didactic Work *Sabot ul-ojizin*.....107

Ilhom Kholmuminov
Cognitive Mechanisms and Paradigmatic Modeling of Literary Translation.....119

SOCIOLOGY

Komil Kalanov
Sociological Discourse Analysis of Artificial Intelligence Technologies .133

ETHNOLOGY. ETHNOGRAPHY. ANTHROPOLOGY

Adhamjon Ashirov
The History and Distinctive Features of Samarkand Markets 156

ISSN 2181-922X 6—23

LINGVISTIKA

LINGUISTICS

Bolalar nutqida emotsional deyksisning voqelanishi

Munavvara Qurbonova[1]

Abstrakt

Mazkur maqola bolalar nutqida emotsional deyksisning lingvopragmatik va psixolingvistik xususiyatlarini kompleks tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda til birliklarining nafaqat referensial, balki emotsional-ekspressiv funksiyasi ham mavjudligi asoslangan. Unda bolalar nutqida deyktik vositalarning emotsional munosabatni ifodalashdagi o‘rni, ularning kognitiv rivojlanish, ijtimoiy muhit va hissiy tajriba bilan uzviy bog‘liqligi yoritilgan. Shuningdek, fonetik, leksik va morfologik birliklar orqali yuzaga keladigan emotsional deyksis mexanizmlari real nutqiy misollar asosida tahlil qilingan. Bola nutqida unlilarning cho‘zilishi, undoshlarning ikkilantirilishi, undov va yuklamalar yordamida quvonch, qo‘rquv, norozilik, mehr kabi hissiyotlar ifodalanishi ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari emotsional deyksisni shaxsiy tajriba va nutqiy faoliyatning muhim komponenti sifatida talqin etish zarurligini ko‘rsatadi hamda uning bolalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi rolini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqot emotsional deyksisning til va tafakkur munosabatini tadqiq etishdagi o‘rnini ham belgilaydi, bolalar nutqining psixologik va ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu yondashuv ontolingvistika va pragmalingvistika doirasida yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyatini yuzaga keltiradi va nazariy tadqiqotlar uchun asos bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *bolalar nutqi, ishora birligi, ontogenez, emotsional deyksis, ontolingvistika, pragmalingvistika, kommunikativ maqsad, nutqiy vaziyat, prosodik belgi, avtokommunikatsiya.*

Kirish

Dunyo tilshunosligida so‘nggi yillarda shaxsga xos hissiy kechinmalarning til birliklari orqali ifodalanishiga doir masalalar

[1] *Munavvara Qurbonova* – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-pochta: munavvara2013@yandex.ru
ORCID ID: 0000-0002-3899-232X
Iqtibos uchun: Qurbonova, M. 2026. “Bolalar nutqida emotsional deyksisning voqelanishi”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 1: 6 – 23.

talqinida kognitiv-psixologik, ijtimoiy-fiziologik, milliy-madaniy hamda kommunikativ-pragmatik yondashuvlar yetakchilik qilmoqda. Chunki til nafaqat axborot uzatish vositasi, balki insonning emotsional dunyosini namoyon etuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik tizim hamdir. Til birliklarining emotsional-ekspressiv funksiyasini belgilashda deyktik (ishoraviy) vositalar alohida o‘rin tutadi va muloqot jarayonida nutqning lingvopragmatik tabiatini yaqqol aks ettirishga xizmat qiladi. Bunda bolalar nutqiga oid misollar boy daliliy material beradi. Ular nutqida bu turdagi ishora birliklari o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Ontogenez davrida emotsional deyksisning hosil qilinishi, eng avvalo, bolaning hissiy tajribasi, uni qurshab turgan ijtimoiy muloqot muhiti va kognitiv rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur holat emotsional deyksis hodisasini nutq ontogenetik faoliyati doirasida tadqiq etish zamonaviy ontolingvistika va pragmalingvistikaga oid muhim masalalardan biri ekanini ko‘rsatadi. Verbal muloqotning shakllanish va rivojlanish bosqichlarida deyktik birliklar faqat predmet yoki shaxsga ishora qilish bilan cheklanib qolmaydi, balki ular nutq subyektining hissiy munosabati – quvonch, g‘azab, qo‘rquv, e’tiroz yoki mehr ifodasini ham namoyon etadi. Shu jihatdan, emotsional deyksis hodisasining yuzaga kelish sabablarini bolalar nutqi misolida tadqiq etish til va tafakkur munosabatini aniqlashda alohida e’tiborga molik. Emotsional deyksisning o‘zlashtirilishi bilan bog ‘liq masalalar tahlili bolalar psixologiyasi va ularda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonida ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bolaning “nutqiy men”i emotsional markaz sifatida shakllanar ekan, bu jarayonda u atrofdagi insonlar va voqealarga nisbatan hissiy baho munosabatini ifodalay boshlaydi. Mazkur holat bola shaxsining ijtimoiy-psixologik jihatdan rivojlanib borayotganidan dalolat beradi.

Dunyo tilshunosligida bolalar nutqida shaxs, zamon va makon deyksislarining ifodalanishi masalasi maxsus o‘rganilib, ularning ichki turlariga ko‘ra farqlanishi ko‘rsatilgan [Доброва 2005; Краснощекова 2016; Королев 2011]. Mazkur muammo tahliliga oid ishlarda nutq ontogenetik faoliyatida deyktik birliklarning o‘zlashtirilish darajasi ham aniqlangan [Tillman, Marghetis, Barner, Srinivasan 2017; Smolík 2023; Diessel, Monakhov 2023; Glauer, Sixtus, Kachel, Lonnemann, Hildebrandt 2024].

Jahon tilshunosligida bolalar nutqiga xos ishora birliklari semantik, pragmatik va psixolingvistik jihatdan muayyan darajada tadqiq etilgan bo‘lsa-da, bugungi kunga qadar ularning kommunikativ

faoliyatida til birliklari vositasida emotsional deyksisning voqelanish mexanizmlari yetarli darajada o‘rganilmagan. Tadqiqot mavzusi shu jihatdan dolzarbdir.

Bolalar nutqida fonetik va leksik birliklar orqali emotsional deyksisning ifodalanishi

Deyksis nutqiy markazning o‘zgaruvchan tabiati, inson idrokining lingvistik ifodasi hamda emotsional tajribaning kommunikativ shakli hisoblanadi. Uning o‘ziga xos ko‘rinishlari bolalar nutqida yaqqol namoyon bo‘ladi. Emotsional deyksis bola uchun til va hissiyot o‘rtasidagi tabiiy ko‘prik sifatida xizmat qiladi. Shu bois, bolalar nutqiga xos deyktik xususiyatlarni tadqiq etish ularning kognitiv va emotsional rivojlanish bosqichlarini aniqlashda katta ahamiyatga egadir.

Bolaning “men” va “sen” tushunchalarini farqlay boshlashi uning kognitiv va emotsional jihatdan o‘zini anglash bosqichiga to‘g‘ri keladi. Bu bosqichda deyksis nafaqat lingvistik, balki psixologik funksiyani ham bajaradi. Bu esa o‘z navbatida deyksis masalasi tadqiqida emotsional va subyektiv jihatdan yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan P.Bago, B.Kóczy va K.Zajdó asarlarida deyksis nafaqat makon va zamon, balki so‘zlovchining emotsional munosabatini ham belgilovchi mexanizm sifatida tahlil qilinadi. Ular “emotsional deyksis” terminini fanga kiritib, hissiy reaktsiyalarni ham kontekstual ko‘rsatkich sifatida talqin qiladilar [Bago 2020; Kóczy, Zajdó 2023].

Masalan, bola “bu chiroyli”, “u yomon” deganida nafaqat obyektga ishora qiladi, balki unga nisbatan shaxsiy hissiy bahosini ham beradi. Emotsional deyksis bolaning ichki kechinmalarini til orqali tashqi muhitga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan deyksisning bu turiga oid nazariyalar bolalar nutqini tahlil qilishda alohida ahamiyatga molikdir. Chunki bola muloqot jarayonida dastlab obyektiv voqelikni emas, balki hissiy tajribasini verbal shaklda modellashtiradi. Demak, deyksisni faqat til tizimidagi birlik sifatida emas, balki shaxsiy tajriba va emotsional idrokning lingvopragmatik ifodasi tarzida tahlil qilish ham lozim bo‘ladi. Bunda shaxsga ishora qiluvchi til birligi emotsional deyksisni ham yuzaga keltirishi mumkin.

Bolalar nutqiga xos emotsional deyksis ifodasida fonetik birliklar faol ishtirok etadi. Ular tomonidan ishlatiladigan deyktik vositalarning fonopragmatik xususiyat kasb etishi so‘zlovchining muayyan kommunikativ maqsadni ifodalashi hamda shaxsga uning

belgisi yoki harakat-holatini ifodalovchi nutqiy birlik orqali ishora qilishi jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiga xos deyktik birlik ba’zan bir tovushdan iborat bo‘lishi mumkin. Abduazim Abdujabborov (1 yosh-u 1 oy) nutqini bevosita kuzatish jarayonida ***a*** tovushiga *aka* so‘ziga ishora qilish vazifasi yuklanganining guvohi bo‘ldik. Albatta, bola akasiga ilk bor bu tovush (*aka* so‘zining birinchi tovushi) orqali murojaat qilganda yoki uni ko‘rsatganda pragmatik maqsadni ko‘zda tutmagan. U qarindoshlik tushunchasini ifodalovchi birlikni o‘ziga qulay tarzda talaffuz qilgan. Keyinchalik bola *aka* so‘zini to‘liq talaffuz etish ko‘nikmasiga ega bo‘lsa-da, ba’zan ***a*** tovushi orqali akasiga murojaat qilgan yoki bu tovush orqali unga ishora qilgan. Bunday vaziyatda bola tomonidan muayyan pragmatik intensiya yuzaga chiqqan. Bola ***a*** tovushi orqali akasiga ishora qilganda bu holatning kattalarni befarq qoldirmaganini anglab yetgani uchun yana ularning e’tiborini jalb qilish maqsadida bu tovushga deyktik vazifa yuklaydi.

Mazkur pragmatik strategiya va taktikalarni qo‘llash jarayoni bola uchun qiziqarli bo‘lib, unda holatdan zavqlanish hissini uyg‘otgan. Shu tufayli bola tomonidan ishlatilgan fonodeyktik birlik ayni nutqiy vaziyat uchun emotsional deyksis elementi sifatida ham xizmat qilgan. Bola tomonidan bu birlikning baland ohang, quvnoq tembrda ifodalangani va ovozdagi melodik tebranish unda hissiy holatga ishora mavjudligini yaqqol namoyon etgan.

Bolalar nutqida shaxs deyksisining o‘ziga xos tarzda ifodalanishiga sabab bo‘luvchi fonopragmatik vositalarning muayyan qismi so‘z tarkibidagi dastlabki tovushni o‘zgartirib talaffuz qilish natijasida yuzaga keladi. Bunda ham fonetik o‘zgarishga uchragan birliklar so‘zlovchining zavqlanish holatiga ishora qilib, murakkab deyktik xususiyat kasb etadi. Quyidagi she’riy matnda aks etgan fonetik hodisalar bu boradagi fikrimizni tasdiqlaydi:

Men katta bo‘lganimda,
Besh yuzga kirganimda
Katta dada bo‘laman.
– Qizing ham bo‘ladimi,
Oti nima bo‘ladi?
– Yuzta qizim bo‘ladi,
*Oti **P**unis bo‘ladi,*
– Viy-y, – devordi Munisxon,
Men-chi, oyi bo‘laman...

Mingta o‘g‘lim bo‘ladi,
Oti ***P****uxtor bo‘ladi* (G‘.G‘ulom. “O‘ylashni o‘rganamiz”).

Ushbu she’riy matnda qo‘llangan shaxs deyksisini ifoda etuvchi ishora birliklari (*Punis, Puxtor*) bolalarning kommunikativ maqsadi (hazil-mutoyiba qilish) haqida axborot tashiydi. Deyktik birliklarga yuklangan bu pragmatik maqsad ularning tovush o‘zgarishiga uchrashi orqali namoyon bo‘lgan va hissiy holatga ishora qilib, emotsional deyksisni ham shakllantirgan. Chunki hazil-mutoyibaga asoslangan nutqiy vaziyat bolalarda zavqlanish hissini uyg‘otishi tabiiy holdir. Ushbu kontekstda aksariyat hollarda bolalar nutqida uchraydigan emotsional deyksis ifodasini shakllantirishda fonetik usuldan ham samarali foydalanilgan. Bunda *viy-y* undov so‘zi tarkibidagi ikkilantirib talaffuz qilingan -y tovushi hayratlanish bilan birga zavqlanish hissini ham uyg‘otib, emotsional holatga ishora qilgan. Fonetik o‘zgarishga uchragan bu birlikning deyktik vazifasi matn qurshovida aniqlanadi.

Bolalar tomonidan cho‘zib talaffuz qilingan unli tovush aksariyat hollarda qizg‘anish bilan birga, o‘ziga tegishli narsani yo‘qotishdan qo‘rqish hissini bilvosita ifodalab, emotsional holatga ishora qiladi. Masalan:

– *Do‘ppingizni bizga soting, Giroy!*

– *H****o-o****, dadangiz obersin (*X.To‘xtaboyev. “Ikki eshik orasi”*).*

Yuqoridagi kontekstda bola tomonidan cho‘zib talaffuz qilingan tovush hissiy holatni kuchaytiruvchi prosodik belgi sifatida emotsional deyksisni yuzaga keltirib, fonopragmatik vosita vazifasini o‘tagan. Chunki bunda cho‘zib talaffuz qilingan tovush orqali bolaning ayni nutqiy vaziyatdagi ruhiy holati, intonatsion reaksiyasi, muayyan kommunikativ maqsadi yuzaga chiqqan. Mazkur nutqiy vaziyatda bola tomonidan muloqotdoshiga bildirilgan emotsional munosabat norozilik aktining yashirin tarzda ifodalanishiga sabab bo‘lgan.

Iltimos akti ifodalangan nutqiy vaziyatlarda chozib talaffuz qilingan unli tovushdan emotsional holatga ishora anglashilishi ham bolalar nutqida ko‘p kuzatiladigan hodisalardan biridir. Bu jarayonda hosil qilinadigan emotsional deyksis bolalarga xos erkalanish hissini bilvosita aks ettiradi. Masalan:

– Dada, shuni ham obering!

– Yo‘q, endi bas.

– *Dadaj****o-on!*** – deb erkalandi Akram. (P.Qodirov. “Akramning sarguzashtlari”).

Ko‘rinadiki, bolalar tomonidan cho‘zib talaffuz qilingan

unli tovushlar uning hissiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi bilan fonopragmatik tabiatini aks ettiradi. Bu holat ular tomonidan "yalinish" aktining fonetik usulda ifodalanishi jarayonida ko'p kuzatiladi. Masalan: – ***No-on,*** *– deyman yalinib. – Dadajon,* ***no-on.*** (O'. Hoshimov. "Ikki eshik orasi")

Berilgan misolda cho'zib talaffuz qilingan tovush bola ruhiyatida kechgan bir necha hissiyotning o'zaro uyg'unligiga ishora qilgan. Bunda *non* mahsulotini iste'mol qilishga bo'lgan xohish-istak tuyg'usi, bu istakning bajarilmaslik ehtimoliga ko'ra ichki xavotir va rad etilish ehtimoliga ko'ra qo'rquv hissining yashirin ifodasi namoyon bo'lgan.

Muayyan nutqiy vaziyatda bola tomonidan cho'zib talaffuz qilingan unli tovush propozitiv deyksisni shakllantiruvchi birlikning tarkibiy qismi bo'lishi bilan birga ijtimoiy va emotsional munosabatni bevosita ifodalab, murakkab fonopragmatik yukni o'z zimmasiga oladi. Masalan:

– E, olinglar axir! Buving senlarni deb qildi shuncha ovqatni, – dedi Qodir ota astoydil qistab. – E, mazalaring yo'q, shaharbachchalar. Yo Sattorxo'ja mehmon qildimi, a?

– ***Yo'-o'q, o'zimiz to'ydik****, – dedi Furqat.* (N.Fozilov. "Bolaligim – poshsholigim").

Mazkur dialogik muloqot matnida taxminga asoslangan so'roq aktiga javob reaksiyasi sifatida ifodalangan *y'-o'q, o'zimiz to'ydik* gapidan hech kim mehmon qilmagani haqidagi axborotga ishora anglashiladi. Bunda inkor aktini ta'kidlashga xizmat qiluvchi *yo'-o'q* so'zi tarkibidagi unli tovush cho'zib talaffuz etilganda kommunikativ niyatni yumshoq tarzda ifodalab, Qodir otaning mehribonlik bilan bildirgan taklifiga hurmat hamda bola tomonidan kattalarning fikrini keskin rad etishga uyalish hissini bilvosita aks ettiradi.

Ba'zan bola tengdoshlari bilan muloqotga kirishish jarayonida ham so'z tarkibidagi unli tovushni cho'zib talaffuz qiladi. Masalan: *Gulchehra, Klara, Rixsi, Halimalar hovlida gir-gir aylanib, ko'ylaklarining etagini pirillatish o'ynashdi.*

– Mening etagim yaxshi pirillaydi, – dedi Klara.

*– H****oo****, mana qarang, bizniki siznikidan battarroq pirillaydi. (yaxshiroq demoqchi).* (M.Sodiqova. "O 'zi ham Shirin, so'zi ham").

Keltirilgan misolda yuz bergan fonetik hodisa voqelikka munosabatni kuchaytirish bilan birga, o'yin jarayonidagi raqobat muhiti ta'sirida bola ruhiyatida kechayotgan maqtanish hissiga ishora qilgan. Shu tariqa uning nutqida emotsional deyksisning

o‘ziga xos ko‘rinishi namoyon bo‘lgan.

Bolalar nutqida cho‘zib talaffuz qilingan unli tovush ekstralingvistik vosita bilan uyg‘un holda qo‘llanib, qorqinch hissiga ishora qiladi. Masalan: *Oy**i-i-i! – dedim chinqirib**.* (O‘Hoshimov. “Dunyoning ishlari”).

Yuqorida qayd etilgan fonetik hodisa orqali emotsional deyksisning qaysi turi hosil qilinganiga kontekst asosida aniqlik kiritiladi. Bunda matnning oldingi segmentida ifodalangan *Tag‘in **qo‘rqib ketdim*** gapidan uning keyingi qismida yuz bergan fonetik jarayon orqali qo‘rquv holatiga ishora qilinganini anglab olish mumkin bo‘ladi.

Ba’zan bolaning talaffuz imkoniyatlari bilan bog‘liq holda nutqida o‘zgarishga uchragan birlik uning o‘z shaxsiga va hissiy holatiga ishorani hosil qiladi:

1. Asfalt yo‘lkada qo‘shni bolalar o‘ynab yurgan ekan. Akram ularga mashinalarini ko‘rsatdi. U hali “r” deyolmas edi:

*– Qa**ya**, Shavkat! Avtobuscham o‘zi yu**ya**di! Senda bunaqasi yo‘q! – deb maqtandi.* (P.Qodirov. “Akramning sarguzashtlari”).

2. ... – *Mani qo‘g‘i**y**chog‘im **ya**api**ya**di.* (Munisa Nazarova, 3 yosh).

Ushbu misollardagi fonetik o‘zgarishga uchragan birliklar nutq egasining bola ekanligiga ishora qiladi. Birinchi misolda so‘zlovchi shaxs avtobuschasining o‘zi yurishi, keyingi misolda esa qo‘g‘irchog‘ining gapirishi bilan faxrlangan. Shuningdek, birinchi misolda faxrlanish tuyg‘usining paydo bo‘lishiga boladagi mamnuniyat va “menda bor, senda yo‘q” mazmunini ifodalovchi birliklar orqali ishora qilingan qiyosiy ustunlik hissi sabab bo‘lgan. Mazkur kontekstda asar muallifi bola tilidan muloqotdoshga nisbatan emotsional ta’sir ko‘rsatish maqsadini mohirona aks ettirgan. “Senda bunaqasi yo‘q!” gapi orqali raqobat mazmuni kuchli ifodalangan. Bu o‘rinda ustunlik, o‘zini balandroq tutish, biroz mag‘rurlanish holatlari sezilib turadi. So‘zlovchi o‘zi va muloqotdoshida mavjud imkoniyatlarni solishtirish orqali undan e’tirof kutadi. Bunda bolalar nutqiga xos samimiyat bilan ifodalangan quvonch hissiga ishora kuzatiladi. Bola *avtobuscham o‘zi yuyadi* gapini zavq va hayajon bilan ifodalaydi. Demak, bu maqtanish kattalardagi kibrdan farqli ravishda bolalarcha faxr va shodlik hissi bilan uyg‘un bo‘ladi.

Quyidagi mikromatnda kuzatiladigan tovush o‘zgarishlari bola shaxsiga ishora qilish bilan birga, uning yosh jihati, gender xususiyati va hududiy belgisi haqidagi ma’lumotlarni ham aks

ettiradi: *"Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo'ldi... To'rt yashar qizchasi qo'liga ro'molcha olib, onasining yuzini karaxt, nimjon, xira pashshalardan quriydi: ba'zan qo'lida ro'molcha, mukka tushib uxlab qoladi.. Sotiboldi qizchasini o'lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganida qizcha uyg'ondi va ko'zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:*

– *Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin".* (A. Qahhor. "Bemor")

Kontekstda qo'llangan *daydiga* va *beygin* so'zlarida ***r*** tovushining ***y*** tarzida talaffuz qilinishi to'rt-besh yoshgacha bo'lgan bolalar nutqiga xos xususiyat sanaladi. Mazkur yosh davrida bolaning nutq a'zolari tovushlarni talaffuz qilishga to'la moslashmagan bo'ladi. Matnda nihoyatda kuyunchaklik bilan ifodalangan nutqiy aktning qiz bola tilidan aks ettirilgani ham ahamiyatlidir. Bu orqali so'zlovchi shaxsning ichki kechinmasiga (o'tinchli iltijosi) ham ishora qilinib, emotsional deyksis shakllantirilgan. Ushbu nutqiy akt o'g'il bolaga xos bo'lganda, uning kitobxon ruhiyatiga ta'siri nisbatan sust bo'lar edi. Chunki o'g'il bolalar jonkuyar bo'lsada, psixologik jarayonlar ta'sirida yuzaga keladigan aksariyat his-tuyg'ularni nutq vositasida oshkor qilmaydi. Bunga murakkab vaziyatlarga nisbatan loqaydlik emas, balki erkaklar tabiatiga xos jasorat, matonat kabi irodaviy sifatlar sabab bo'ladi.

Voqelikdan qattiq ta'sirlanish va bu jarayondagi ko'ngil kechinmalari, orzu-istaklarni verbal vosita orqali yuzaga chiqarish ayollar nutqiga xos psixolingvistik xususiyat sifatida mazkur jins vakillarida bolalik davridan boshlab shakllanib boradi. Bunda nafaqat shaxsiy-irodaviy sifatlar, balki bolaga katta yoshli jinsdoshlari nutqiga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlarning ham ta'sirini sezish mumkin.

Matnda bola nutqida qo'llangan dialektal elementlar uning ijtimoiy differensial jihati (hududiy xoslanishi)ga ishora qiladi. Bolaning onasiga nisbatan shevaga xos *ayamdi* so'zshaklini ishlatishi nutqning hududiy xoslanishini ko'rsatadi. So'zshaklining adabiy talaffuz me'yorlariga nomuvofiq tarzda ifoda etilishi esa nutqning ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi.

Bola ona tilidagi nutqni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa-da, so'z tarkibidagi undosh tovushlarni o'zgartirib talaffuz qilishi mumkin. Ko'pincha bunday holatlarda bola muloqotdoshiga ijobiy baho munosabatini bildirish maqsadini ko'zda tutadi. Muxlisaxon Muhiddinova (6 yosh) nutqida kuzatilgan *Oyijon, **sh**ij**j**i ya**sh**shi ko'**y**aman* (sizni yaxshi ko'raman) misolida shunday holat aks

etgan. Bunda bola “sizni” so‘zidagi “s” tovushini **sh**, “z” tovushini ***j***, “yaxshi” so‘zidagi “x” tovushini ***sh***, “koraman” so‘zidagi “r” tovushini ***y*** tarzida talaffuz qilish orqali muloqotdoshiga (onasi) emotsional ta’sir ko‘rsatgan. Mazkur nutqiy vaziyatda “yaxshi ko‘raman” birligi boladagi mehr tuyg‘usini bevosita ifodalashga xizmat qilgan. Gap tarkibidagi o‘zgartirib talaffuz qilingan tovushlar esa bola shaxsiga xos erkalanish hissiga ishora qilib, tinglovchilar diqqatini jalb etgan.

Ba’zan bola ham shaxs deyksisini shakllantirishga xizmat qiluvchi birlik tarkibidagi undosh tovushni ikkilantirish orqali nutqning ta’sirchanligini oshirishga intiladi. Masalan:

“– *Oyi, oyijon! ...*

– *Agar bittasi xafa qisa, manga ayting,* ***o‘zzim*** *gaplashib qo‘yaman”.* (R.Muhammadjonov. “Chol va nabira”).

Yuqorida ajratib ko‘rsatilgan deyktik birlik nafaqat ta’kidni, balki bolalarga xos beg‘uborlik bilan maqtanish hissini ham ifoda etgan. Mazkur holatning yuzaga kelishi muloqot xulqining gender jihatdan xoslanishi bilan ham bog‘liq bo‘lib, bunda fonopragmatik xususiyat so‘zlovchi shaxsga xos belgi ta’sirida emotsional holatga ishora qiluvchi birlik orqali yuzaga chiqadi. Yuqoridagi kommunikativ vaziyatda so‘zlovchi o‘g‘il bola bo‘lgani uchun erkaklarga xos mardlik, jasorat, shijoat, mag‘rurlik kabi sifatlar uning nutqiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Shu tariqa so‘zlovchi tomonidan ikkilantirib talaffuz qilingan “z” tovushi uning gender jihatini namoyon etib, hissiy holatiga (g‘u)rurlanish) ishora qiluvchi vosita sifatida fonopragmatik xususiyat kasb etgan.

Quyidagi misollarda ikkilantirib talaffuz qilingan undosh tovush bolalarga xos zavqlanish hissiga ishora qiladi:

1. Men bo‘lsam, hali bitmagan ko‘rpa ustida dumalab o‘ynadim. Mazza. (O‘Hoshimov. “Ikki eshik orasi”).

2. Mazza qilib ashula eshitayotsam, birov yelkamga turtdi. (O‘Hoshimov. “Ikki eshik orasi”).

Aksariyat hollarda maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan shaxs deyksisining o‘ziga xos shaklda ifodalanishiga xizmat qiladigan fonopragmatik vositalar artikulyatsion imkoniyatlar bilan bog‘liq holda yuzaga kelsa, maktab yoshidagi bolalar nutqida bu hodisa kattalarga taqlid qilish natijasida sodir bo‘ladi. Shu jihatdan o‘smirlar va balog‘at yoshiga yetgan yigit-qizlarning kommunikativ-pragmatik maqsadida mushtaraklik sezilib turadi.

Bugungi kunda maktab yoshidagi o‘zbek qizlari tomonidan ayollar nutqida do‘stona munosabatni ifodalash maqsadida ishlatiladigan “dugona” so‘zi tarkibidagi oxirgi unli tovushni

tushirib qoldirgan holda ***dugon,*** tushirib qoldirilgan tovushdan oldingi undosh tovushni o‘zgartirib talaffuz qilish orqali ***dugosh*** tarzida murojaat qilish urfga aylanib bormoqda. Nutqiy odat birligi sifatida istifoda etilayotgan bu kabi ifoda vositalari nafaqat tinglovchi shaxsga, balki so‘zlovchi shaxs ruhiyatida kechayotgan mehr ko‘rsatish holatiga ham ishora qilib, murakkab deyktik vazifa bajaradi.

Deyktik so‘zlar bolalar nutqining nihoyatda sermahsul ekanini ko‘rsatadi. Bola besh yoshga yetganda kundalik hayotda ko‘p ishlatiladigan deyktik birliklarni to‘liq o‘zlashtirib, ulardan samarali foydalana boshlaydi. Chunki bu yosh davrida bolaning nutqi ko‘p jihatdan an’anaviy til me’yorlariga moslashadi. Biroq lisoniy ijtimoiylashuv jarayonida bu yoshdagi bolalar nutqida shaxs deyksisini shakllantiruvchi ba’zi leksik vositalar noo‘rin qo‘llanishi mumkin. Masalan:

*Yulduzxon besh-olti yoshga kirguncha ham oyisini **“kennoyi”** deb chaqirib yurdi.* (M.Sodiqova. “O‘zi ham shirin, so‘zi ham”).

Albatta, bu yoshdagi bolalarning mental lug‘atida ona ijtimoiy rolini bajaruvchi shaxsni ifodalaydigan me’yoriy nutq birligi mavjud bo‘ladi. Bolalarning shaxsga ishora qiluvchi birliklarni bu tarzda noo‘rin qo‘llashlarida muayyan pragmatik maqsad kuzatiladi. Ko‘pincha bola nutqida kuzatilgan bunday holatlar o‘yin faoliyatining bir qismiga aylanadi. Shu tariqa bolalar o‘z nutqidan zavqlanish hissini tuyadilar. Bunday nutqiy vaziyatlarda bola tomonidan qo‘llangan leksik birliklar shaxsga ishora qilish bilan birga, emotsional deyksisni ham yuzaga chiqaradi.

Bolalar nutqiga xos grammatik birliklarda emotsional deyksisning namoyon bo‘lishi

Til birliklarining morfodeyktik tabiati olmoshlarda yaqqol aks etadi. Quyidagi kontekstda bola tomonidan qo‘llangan shunday olmoshi diskurs va emotsional deyksisni hosil qilgan: *Hammamiz qiy-chuv solib o‘ynayotgan edik, jo‘raboshimiz alam bilan do‘rillab qoldi: – Shinelim! Shinelimni yeb qo‘ydi! **Shunday** degancha kattakon tayog‘ini ko‘tarib tol soyasida allanimani mazza qilib chaynayotgan buzoq tomonga yugurdi.* (O‘.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”).

Bu o‘rinda qo‘llangan olmosh oldingi nutq bo‘lagi — “Shinelimni yeb qo‘ydi!” — mazmuniga qayta ishora qilib, matnda kogeziya (bog‘liqlik)ni ta’minlagan. Bolalar nutqida bu kabi birliklar odatda o‘z nutqiga qaytish, hissiy holatni kuchli ifodalash va harakat-

nutq uyg‘unligini aks ettiruvchi tipik psixopragmatik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Bolalar egotsentrik nutqida o‘zlik olmoshi ko‘p uchraydi. Ular olmoshning bu turini egalik affikslari bilan birga, kishilik olmoshi o‘rnida qo‘llagan holda shaxsga ishora qiladilar. Masalan:

Buvisi: –... Voy meni jajjigina bilag‘onim, shiringina bolajonim!
Tibbiyot xodimi: – Opketishga to‘g‘ri keladi.
Nabirasi: – Qayoqqa?
Tibbiyot xodimi: – Kasalxonaga.
Buvisi: – Sigirni kim sog‘adi?
***Nabiralari: – O‘zimiz** sog‘amiz.*
Buvisi: – Abdullani kim uylantiradi?
***Nabiralari: – O‘zimiz** uylantiramiz* (R.Muhammadjonov. “Suyunchi”).

Yuqoridagi kontekstda qo‘llangan deyktik birlik birdan ortiq shaxslarga ishora qilish orqali miqdor deyksisini ham shakllantirgan, shuningdek, mazkur nutqiy vaziyatda bu birlik bolalarning hissiy holatini ko‘rsatishga ham xizmat qilgan. Bunda ular tomonidan buvisiga mehribonlik bilan ma’naviy rag‘bat berib, unda xotirjamlik hissini uyg‘otish maqsadi ko‘zda tutilgan. Ushbu maqsad ifodasidan o‘zlik olmoshi orqali bolalar ruhiyatida kechayotgan o‘ziga nisbatan ishonch tuyg‘usi, mas’uliyat hissiga ishora anglashiladi. Shu tariqa ayni kommunikativ vaziyatda ko‘tariluvchi ohangda ifodalangan bu birlik bolalar tomonidan buvisiga nisbatan ijobiy ta’sir ko‘rsatishga intilish vositasi sifatida xizmat qilgan va emotsional deyksis hodisasini ham yuzaga keltirgan.

Bolalar nutqida *hech qachon* bo‘lishsizlik olmoshi nutqiy vaziyatda kutilayotgan, ammo rad etilayotgan kelasi zamonga ishora qiladi. *Qachon **hech qachon** bog‘chaga bormiyman?* (Abdulaziz Abdujabborov, 3 yosh-u 9 oy) misolida shunday holat kuzatiladi. Bu o‘rinda bola *hech qachon* birligini *qachon* so‘roq olmoshi bilan birga qo‘llash orqali inkor aktini keskin ifodalash maqsadini ko‘zda tutgan. Shu tariqa bola nutqiy faoliyatida yonmayon qo‘llangan bu birliklar uning ruhiyatida kechayotgan voqelikdan norozilik holatiga ishora qilib, emotsional deyksisni ham yuzaga keltirgan.

Maktab yoshidagi bolalar nutqida qo‘llangan ayrim atoqli otlar so‘zlovchi shaxsga ishora qilib, pragmatik vazifa bajaradi. Masalan: *“Bu ahvolda ishim pachava bo‘ladiganga o‘xshaydi. Qalli otaning nomzodini o‘zim taklif qilib, buyoqlarga o‘zim kelgan*

bo‘lsam-u, To‘rtko‘lga so‘ppayib quruq borsam! Nima degan odam bo‘laman. Ayniqsa, Samad quv nima deydi? Yo‘q, bu ishingiz bo‘lmaydi”, ***Sog‘indiqvoy****!”* (N.Fozilov. “Bolaligim – poshsholigim”).

Keltirilgan misolda *Sog‘indiqvoy* atoqli oti so‘zlovchi shaxsni ko‘rsatish orqali deyktik xususiyat kasb etgan. Mazkur holat ayniqsa, bolalar nutqida ko‘p uchraydigan avtokommunikatsiya (so‘zlovchining o‘zi bilan muloqotga kirishish jarayoni) hodisasi natijasida yuz beradi. Bunday vaziyatlarda nutq subyektining kommunikativ maqsadi axborot uzatish emas, balki o‘ziga savol berish va javob qaytarish orqali fikrlarini aniqlashtirish, qaror qabul qilish, ruhiyatida kechayotgan emotsional holatlarni tartibga solishdan iborat bo‘ladi. Shu tufayli u ichki nutqini o‘ziga yo‘naltiradi, o‘ziga ismi orqali murojaat qilib, shaxs deyksisini ham yuzaga keltiradi.

Bolalar nutqida yuqoridagi kabi ishora birliklari ekstralingvistik vosita bilan birga qo‘llanib, deyksisning ikki va undan ortiq turini hosil qiladi. Masalan: “***Yetim****mi haqini yeyish gunoh, tag‘in bilmadim”* (Sh.Abbosov, A.Naumov. “Shum bola”).

Keltirilgan misolda *yetim* leksemasi shaxs va ijtimoiy holat deyksislarini yuzaga keltirish bilan birga, so‘zlovchining emotsional holatini ham bilvosita aks ettirgan. Chunki ushbu nutqiy vaziyatda bu birlik bola ruhiy holatida kechayotgan o‘ksinish hissi, unga bo‘lgan munosabatdan ranjiganlik holatiga ham ishora qilgan. Bunda bola tomonidan ishora birligining yig‘lamsiragan holda ifodalangani ham ahamiyatlidir.

Maktab yoshidagi bolalar nutqiga xos xususiyatlar

Maktab yoshidagi bolalar tomonidan hissiy baho munosabatining ifodalanishida sifat turkumiga oid birliklarga tez-tez murojaat qilib turiladi. Bunda deyktik birlikning qanday emotsional munosabat ifodalaganini nutqiy vaziyat, matn qurshovisiz aniqlab bo‘lmaydi. Masalan: “*Kecha biza internetda* ***dahshat*** *moshinalani ko‘rdik”.* (Ibrohimjon Muhiddinov, 11 yosh)

Ma’lumki, “dahshat” sifati enontiosemik birlik bo‘lib, muayyan nutqiy vaziyatda ijobiy bahoni aks ettirsa, boshqa bir o‘rinda u orqali ifodalangan munosabat salbiy tus oladi. Biroq har qanday vaziyatda ham bu birlik bola ruhiyatida kechayotgan hayratlanish, hayajonlanish, to‘lqinlanish holatlariga ishora qilib, emotsional deyksisni shakllantiradi. Keltirilgan misolda bola tomonidan baland ohangda ifodalangan nutqiy birlik obyektning sifati, dizayni va kuchidan ta’sirlangan holda qoyil qolish, quvonish,

zavqlanish, uni yoqtirish hissini aks ettirib, baho munosabatining ijobiy ekanini ko‘rsatgan.

***Dahshat** yong‘in bo‘pti* (Abdulbosit Abdujabborov (10 yosh) misolida esa “yong‘in” so‘zining salbiy hodisani ifodalashi orqali bola ruhiyatida *dahshat* sifati voqelikdan ajablanish, achinish hissini uyg‘otganligiga ishora anglashiladi.

Har ikkala holatda ham ushbu deyktik birlik tinglovchilarga emotsional ta’sir ko‘rsatish orqali ularning diqqatini jalb etib, perlokutiv akt hosil qilgan. Bu kabi holatlar tilning nihoyatda serqirra hodisa ekanini ko‘rsatadi.

Bolalar nutqida ravishlar ham emotsional deyksis hodisasini yuzaga keltiradi: *“Akram bugun samolyotda Qoradengizga uchib borishlari kerakligini esladi-yu, sapchib o‘rnidan turdi. Ko‘zlarini uqalab:*

– ***Hozir! Hozir!*** – *dedi”.* (P.Qodirov. “Akramning sarguzashtlari”) misolida *hozir* ravishi takror qo‘llanib, zamon deyksisini shakllantirish bilan birga quyidagi ekspressiv-emotsional holatlarga ham ishora qiladi:

1. Bolalarga xos shoshqaloqlik va tezkorlik. Bunda *hozir* ravishining takror qo‘llanishi zamon deyksisini kuchli ifodalagan holda ish-harakatni kechiktirmasdan, darhol bajarish zarurligini bilvosita aks ettirgan.

2. Hayajon va kutilmagan vaziyat. Bunda Akramning *sapchib o‘rnidan turib, hozir* ravishini takror qo‘llashi unda kechgan hayajonlanish holatiga ishora qilgan, ya’ni ushbu vaziyatda to‘satdan yodga tushgan voqelik bolada hissiy qo‘zg‘alish yuz berishiga sabab bo‘lgan.

3. Ichki zo‘riqish, emotsional keskinlik. Bunda takror qo‘llangan *hozir* ravishi shaxsning o‘zini tezkorlik bilan harakatga undashi, o‘ziga buyruq berish holatini ko‘rsatgan. Bu esa o‘z navbatida boladagi emotsional zo‘riqish hissini bilvosita aks ettirgan.

4. O‘zini-o‘zi safarbar etish, o‘zi bilan muloqotga kirishish. Bunda takror qo‘llangan *hozir* ravishi avtokommunikativ xarakter kasb etgan. Chunki mazkur vaziyatda bola deyktik birlikni o‘ziga yo‘naltirib, psixologik jihatdan o‘zini harakatni bajarishga tayyorlaydi. Bu holat nutqiy faoliyatda ishora birligini tezlik bilan takrorlash natijasida yuzaga keladi.

Bolalar nutqida “o‘lmoq” va “o‘ldirmoq” fe’llari emotsional holatga ham ishora qiladi. Masalan:

1. – Senimi, shoshmaytur, – dedi Mahfuza akasiga yeb qo‘yguday

o‘qrayib…

– Qilmishingga yarasha…

*– Oyimdan **o‘lasan** hali.* (N.Fozilov. “Bolaligim – poshsholigim”)

*2. – Keyingi dars zoologiya. Sulaymon aka **o‘ldiradi**,*

– Qo‘yvoring!

– Oyoq-qo‘limni baravar silkitib, yulqindim (O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”).

Birinchi misolda *o‘lasan* fe’li emotsional deyksisni hosil qiluvchi birlik vazifasini bajargan. Ushbu birlik orqali so‘zlovchi ichki affektiv holatini tinglovchiga yo‘naltiradi. Bunda so‘zlovchi tinglovchini jazolanish ehtimoli bilan qo‘rqitadi, Uning harakatini cheklamoqchi bo‘ladi. Bola kattalar nutqida qo‘llaniladigan tahdid, urishish, ogohlantirish aktlarini ifodalovchii birliklarni bo‘rttirilgan holda takrorlaydi. Bunda u haqiqiy ma’nodagi o‘limni nazarda tutmaydi, mazkur tushunchani ifodalovchi birlikni kuchli jazo, muammo, jahldorlik ma’nolarida qo‘llaydi. Keyingi misolda *o‘ldiradi* fe’li denotativ ma’noda emas, balki nutq mazmunini emotsional jihatdan kuchaytirish vositasi sifatida qo‘llangan. Bunda o‘quvchi bola keyingi darsning og‘ir jazo yoki qattiq nazorat ostida o‘tishini tasavvur qiladi. Chunki bu birlikning kontekstdagi vazifasi real jismoniy zarar emas, balki kuchli bosim, qiyin imtihon, koyish kabi holatlarni kuchaytirib ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan. Bunda xavotirlanish, oldinda kutayotgan murakkab vaziyatdan tashvishlanish, qo‘rquv va hayajonlanish holatlariga ham ishora mavjud.

Bolalar nutqida kattalardan o‘zlashtirilgan taqlid so‘zlarga ham deyktik vazifa yuklatilganligini ko‘rish mumkin. Masalan: “*– Dada, qulog‘im bekilib qoldi. **Qitir-qitir** qilyapti! – dedi”*. (P.Qodirov. “Akramning sarguzashtlari”).

Berilgan misolda qo‘llangan *qitir-qitir taqlid so‘zi shunday tovushning yuzaga chiqishiga* sabab bo‘lgan hodisaga ishora qilib turadi. Kontekstda aks etgan *qitir-qitir taqlid so‘zida so‘zlovchi shaxs ruhiyatida kechayotgan bezovtalanish hissiga ham ishora kuzatiladi.*

Bolalar nutqida *bilch-bilch* taqlid so‘zining ham ko‘p qo‘llanishi kuzatildi. Quyidagi misolda mazkur morfologik birlik predmetning xususiyati – loyning suyuqligini ko‘rsatish bilan birga, so‘zlovchining unga bo‘lgan subyektiv munosabati, ya’ni salbiy bahosini aks ettirib, emotsional deyksisni ham shakllantirgan: “*Men **bilch-bilch** loyni juda yomon ko‘raman”*. (X.To‘xtaboyev. “Jannati odamlar”).

Bolalarning hissiy holatiga ishora qilishda undov so‘zlar markaziy o‘rinni egallaydi. Mazkur birliklar tinglovchi e’tiborini so‘zlovchining hissiy holatiga bevosita jalb etishga xizmat qiladi. Ko‘pincha bunday holatlarda hayratlanish hissiga ishora kuzatiladi. Masalan: “***Vuy**, anavi baliqni! Mening bo‘yimday keladi-ya!*” (O.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”).

Nutqiy muloqot jarayonida bolalar undov so‘zlarni takror qo‘llagan holda muayyan kommunikativ maqsadni ifodalaydilar. Bunda takror qo‘llangan birlik birdan ortiq hissiyotga ishora qilib, murakkab pragmatik vazifani bajaradi. Masalan:

“– Oyog‘ingga nima qildi, Dilorom? – so‘radi oyisi.

*– **Voy, voy** oyog‘im, xuddi Toshkent suvi ichgandagiga o‘xshab ketyapti. (uvishib qoldi demoqchi)”.* (M.Sodiqova. “O‘zi ham Shirin, so‘zi ham”).

Ushbu dialogik muloqotda bola onasining savoliga javob reaksiyasi sifatida jismoniy holatida yuz berayotgan o‘zgarish haqida axborot berish maqsadini ko‘zda tutgan. Bunda u undov so‘zni takror qo‘llash orqali mazkur jismoniy holat ta’sirida o‘zaro uyg‘un holda yuzaga kelgan bezovtalanish va qo‘rquv hissiga ishora qilgan. Bolalar nutqida yuklamalar faol qo‘llangan holda emotsional deyksis hodisasini yuzaga keltiradi. Masalan: *Mana, – dedim po‘choqni ko‘rsatib. – Soqqamni chaqib qo‘yibsiz-**ku**!* (O.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”).

Mazkur kontekstda aks etgan *–ku* yuklamasi so‘zlovchining ranjiganlik holatiga ishora qilgan. Chunki bunda uning maqsadi e’tiroz bildirish, shikoyat qilish aktlari orqali voqelikka salbiy baho munosabatini ifodalashdan iborat bo‘lgan.

Xulosa

Xullas, deyktik birliklarning fonetik o‘zgarishlar orqali ifodalanishi bolalar nutqiga xos tabiiy jarayon bo‘lib, bunda til birligi muayyan kommunikativ-pragmatik maqsadni yuzaga chiqaradi. Cho‘zib, ikkilantirib yoki o‘zgartirib talaffuz qilingan tovushlar, intonatsion o‘zgarishlar boladagi zavqlanish, maqtanish, yalinish, qizg‘anish, erkalanish, hayratlanish, g‘ururlanish, mehr ko‘rsatish kabi hissiy holatlarni bilvosita ifodalab, emotsional deyksisni shakllantiradi. Maktabgacha yosh davrining so‘nggi bosqichida deyktik so‘zlar til me’yorlariga ko‘p jihatdan mos ravishda qo‘llanadi, biroq bola ularni ijodiy qayta ishlash, o‘yin vaziyatida noodatiy tarzda qo‘llash orqali shaxsiy pragmatik maqsadlarini ham ro‘yobga chiqaradi. Bolalar nutqida olmosh, ravish, sifat, fe’l,

atoqli ot hamda taqlid so‘zlar bir vaqtning o‘zida deyksisning bir necha turini (shaxs, zamon, miqdor, ijtimoiy, diskurs va emotsional) yuzaga keltiradi. Ular nutqida deyksis tinglovchiga ta’sir ko‘rsatish, uni ruhiy jihatdan rag‘batlantirish yoki ogohlantirish funksiyasini bajaradi. Undov va yuklamalar bola nutqida qo‘rquv, hayrat, quvonch, ranjish va bezovtalik hissiga ishora qilib, tinglovchiga kuchli pragmatik ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

Bago, P. 2020. *Pragmatics and lexicography: Deixis as a challenge.* Hrčak, 15. https://hrcak.srce.hr/245467

Baranyiné Kóczy, J., & Zajdó, K. 2019. *Spatial metaphors in reporting emotions: The use of emotional deixis.* UMCS Journals. https://journals.umcs.pl/lsmll/article/view/15500

Доброва, Г.Р. 2005. *Онтогенез персонального дейксиса.* Дисс. д-ри. филол. наук. Санкт-Петербург.

Diessel, H., & Monakhov, S. 2023. *Acquisition of demonstratives in cross-linguistic perspective.* Journal of Child Language, *50*(4). https://www.cambridge.org/core/services/aop-cambridge-core/content/view/13C3C8E4F857926D87FAC5BB020650B2

Краснощекова, С.В. 2016. *Местоименный дейксис в русской детской речи.* Дисс. канд. филол. наук. Санкт-Петербург.

Королев, В. 2011. *Стадии освоения детьми средств выражения локативного и темпорального дейксиса.* Retrieved from http://cyberleninka.ru/article/n/#ixzz2K6sLGDlP

Tillman, K., Marghetis, T., Barner, D., & Srinivasan, M. 2017. *Today is tomorrow’s yesterday: Children’s acquisition of deictic time words.* Cognitive Psychology, 92. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0010028516302079

Smolík, F. 2022. *About me, you and her: Personal pronouns are developmentally preceded by mental state language.* Journal of Child Language. https://www.researchgate.net/publication/359828607

Glauer, R., Sixtus, Y., Kachel, G., Lonnemann, J., & Hildebrandt, F. 2024. *Children’s understanding of demonstratives: An experimental study with German-speaking children between 5 and 7 years of age.* Frontiers in Psychology. https://www.frontiersin.org/journals/psychology/articles/10.3389/fpsyg.2024.1403528/full

The realization of emotional deixis in children's speech

Munavvara Kurbanova[1]

Abstract

This article is devoted to a comprehensive analysis of the linguopragmatic and psycholinguistic features of emotional deixis in children's speech. It substantiates that linguistic units perform not only a referential function but also an emotional and expressive one. The study examines the role of deictic means in expressing emotional attitudes in children's speech and highlights their close interrelation with cognitive development, social environment, and emotional experience. Furthermore, the mechanisms of emotional deixis realized through phonetic, lexical, and morphological units are analyzed based on authentic speech examples. It is demonstrated that vowel lengthening, consonant gemination, as well as interjections and particles serve to express emotions such as joy, fear, dissatisfaction, and affection. The findings emphasize the necessity of interpreting emotional deixis as a significant component of personal experience and speech activity, as well as its role in the development of children's communicative competence. The study also determines the role of emotional deixis in exploring the relationship between language and cognition and contributes to identifying indicators of children's psychological and social development. This approach enables the formulation of new scientific conclusions within the frameworks of ontolinguistics and pragmalinguistics and provides a solid theoretical foundation for further research.

Key words: *children's speech, deictic unit, ontogenesis, emotional deixis, ontolinguistics, pragmalinguistics, communicative intention, speech situation, prosodic feature, autocommunication.*

References

Bago, P. 2020. *Pragmatics and lexicography: Deixis as a challenge.* Hrčak, 15. https://hrcak.srce.hr/245467

Baranyiné Kóczy, J., & Zajdó, K. 2019. *Spatial metaphors in reporting emotions: The use of emotional deixis.* UMCS Journals. https://journals.umcs.pl/lsmll/article/view/15500

Dobrova, G.R. 2005. *Ontogenez personalnogo deyksisa.* Diss. d-ri. filol. nauk.

[1] *Munavvara Kurbanova* – Doctor of Philological Sciences, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.
E-mail: munavvara2013@yandex.ru
ORCID ID: 0000-0002-3899-232X
For citation: Kurbanova M. 2026. "The realization of emotional deixis in children's speech". *Uzbekistan: Language and Culture* 1: 6 – 23.

Sankt-Peterburg.

Diessel, H., & Monakhov, S. 2023. *Acquisition of demonstratives in cross-linguistic perspective.* Journal of Child Language, *50*(4). https://www.cambridge.org/core/services/aop-cambridge-core/content/view/13C3C8E4F857926D87FAC5BB020650B2

Krasnoщekova, S.V. 2016. *Mestoimenniy deyksis v russkoy detskoy rechi.* Diss. kand. filol. nauk. Sankt-Peterburg.

Korolev, V. 2011. *Stadii osvoeniya detmi sredstv virajeniya lokativnogo i temporalnogo deyksisa.* Retrieved from http://cyberleninka.ru/article/n/#ixzz2K6sLGDlP

Tillman, K., Marghetis, T., Barner, D., & Srinivasan, M. 2017. *Today is tomorrow's yesterday: Children's acquisition of deictic time words.* Cognitive Psychology, 92. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0010028516302079

Smolík, F. 2022. *About me, you and her: Personal pronouns are developmentally preceded by mental state language.* Journal of Child Language. https://www.researchgate.net/publication/359828607

Glauer, R., Sixtus, Y., Kachel, G., Lonnemann, J., & Hildebrandt, F. 2024. *Children's understanding of demonstratives: An experimental study with German-speaking children between 5 and 7 years of age.* Frontiers in Psychology. https://www.frontiersin.org/journals/psychology/articles/10.3389/fpsyg.2024.1403528/full